

MILLIY QONUNCHILIK HUJJATLARIDAGI JINOYATLARNING SABAB VA OMILLARINI ANIQLASHGA QARATILGAN NORMALAR TAHLILI

Kutbitdinov G'iyosiddin Xusniddinovich,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi bosh ilmiy xodimi,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyatlarning sabab va omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonunchilik hujjatlari normalari tahlil qilingan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar miqyosi, yuridik kuchi va ularni qabul qiluvchi subyektlarning vakolat doirasiga qarab shartli ravishda tasniflangan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, huquqbuzarlik, profilaktika, jinoyatchilik sabab va sharoitlari, jinoyatchilik omillari, bartaraf etish, qarshi kurashish, taqdimnoma, tergov, surishtiruv, kriminologiya, tadqiqot.

Abstract. This article analyzes the norms of national legislative documents regulating the activities aimed at identifying and eliminating the causes and factors of crimes. These normative legal acts are conditionally classified based on their scope, legal force, and the authority of the entities that adopt them.

Keywords: crime, offense, causes and conditions of crime, factors of crime, crime, elimination, fight, representation, inquiry, investigation, criminology, research.

Mamlakatimizda jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tartibga soluvchi o'ziga xos milliy qonunchilik bazasi shakllangan bo'lib, amaliyotdagi muammolar va to'plangan tajribalar asosida takomillashib bormoqda.

Shu bilan birga, professor A.X.Rahmonqulovning fikricha, "...bugungi kunda jinoyatprotsessual profilaktika faoliyatining qonunchilik asoslari to'liq shakllantirilmaganligi jinoyatlarning oldini olishda tergov apparati vositalaridan to'laqonli foydalanish imkoniyatini bermayotganligiga ham e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq" [1].

Darhaqiqat, o'tgan davr mobaynida jinoyatlarning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini samarali tashkil etish bilan bir qatorda, uni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirib borishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni miqyosi, yuridik kuchi va ularni qabul qiluvchi subyektlarning vakolat doirasiga qarab shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari;

3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyatprotsessual kodeksi;

4. Ayrim vakolatli organlarga jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash bilan bog'liq vazifalarni yuklovchi va tartibini belgilab beruvchi qonun hujjatlari ("Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi, "Prokuratura to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi, "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunlar va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar);

5. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa idoraviy hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bevosita dastlabki tergov organlarining jinoyatlarni profilaktika qilish faoliyati emas, balki umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, fuqarolarning tinchligi va milliy totuvligini ta'minlashga qaratilgan rahbariy normalar joy olgan bo'lib, ularda jinoyatlarni oldini olishning umumiy shakli namoyon bo'ladi.

Masalan, Konstitutsiyada yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi bo'lib, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi (24-modda) yoki har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi (25-modda), jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi, sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab berilishi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi, hech kimda uning rozilgisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emasligi (26-modda), har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga egaligi (27-modda) kabi normalar aks etgan [2]. Albatta, ushbu rahbariy qonunlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatorida, tergov organlariga ham bevosita taalluqlidir. Chunki, ushbu qoidalarni harakatga keltiruvchi, aslida, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar hisoblanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir Konstitutsiya talablarini bajarishda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda Jinoyat-protsessual kodeksi [3] (keyingi o'rinlarda – JPK) muhim o'rin tutadi.

“JPK normalari: birinchidan, jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunlarda belgilangan tartibda qonuniylikni mustahkamlashda; ikkinchidan, jinoyatlarning oldini olishda; uchinchidan, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyatlarni tez va to'liq ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iborat” (2-modda).

Ta'kidlash joizki, JPKning VI bo'limi bevosita jinoyatlarning oldini olish choralari bag'ishlangan bo'lib, unda: jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyatning sabablarini va uning sodir

etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari shart ekanligi (296-modda); jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning taqdimnomasi (297-modda) va sudning xususiy ajrimi (298-modda) bo'lishi kerakligi; ushbu taqdimnoma va xususiy ajrim yuborilgan davlat organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, jamoat birlashmalari, jamoa yoki mansabdor shaxs zarur choralarni ko'rishi va ko'rilgan choralarning natijalari to'g'risida kechi bilan bir oylik muddat ichida tegishincha surishtiruvchini, tergovchini, prokurorni yoki sudni xabardor qilishi shart ekanligi (299-modda); jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda yuksak onglilik, jasorat ko'rsatgan, ijtimoiy burchini namunali bajargan fuqaro to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror taqdimnoma, sud esa xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan tegishli korxona, muassasa yoki tashkilot rahbariga va jamoasiga xabar qilishi mumkinligi (300-modda) ko'rsatilgan.

Jinoyat-protsessual normalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqoridagilardan tashqari Jinoyat-protsessual kodeksining boshqa moddalarida ham jinoyat ishini yuritish chog'ida jinoyatning kelib chiqish sabablarini, sodir etilishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, jinoyatlarning oldini olishga doir normalar belgilangan. Xususan:

- jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunlarda belgilangan tartibi jinoyatlarning oldini olishga yordam qilishi (2-modda);

- jinoyatlarning oldini olish yuzasidan tergovchilarning o'z vaqtida harakat qilishi tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinbosari tomonidan o'z vakolatlari doirasida nazorat qilinishi (37-modda);

- jinoyatning kelib chiqish sabablarini, sodir qilinishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqishda mutaxassis surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berishi shartligi (70-modda);

- tergovchi jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish uchun jamoatchilikni jalb qilishi, jamoat birlashmalariga, jamoalarga, aholiga jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik ma'lumotlar haqida xabar qilishni, qidirilayotgan shaxslar va

narsalar turgan joyni ko'rsatishni so'rab murojaat qilishi (349-modda);

Jinoyatning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni aniqlashda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud o'z vakolatlari doirasida jamoatchilik yordamidan foydalanishi (21-modda);

– jinoyatning sabablariga va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarga barham berish to'g'risidagi surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning taqdimnomasini yoki sudning xususiy ajrimini bajarmaganlik yoxud talab darajasida bajarmaganlik uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi (271-modda);

– ekspertning yoki ekspertlar komissiyasining xulosasida huquqbuzarliklar sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi (184-modda);

– prokuror yoki uning o'rinbosari tergovchidan ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishini o'rganib chiqishi va jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlangan-aniqlanmaganligini hamda ularga barham berish choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini tekshirishi shartligi (384-modda);

– ishni ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun jinoyatning sabablari va maqsadlari isbotlangan bo'lishi (82-modda);

– sudda jinoyatga doir ishlarni ko'rishda jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar haqida hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar xususida prokuror o'z fikrini bildirishi (409-modda);

– jinoyatning sabablari ayblov hukmining tavsif qismida ko'rsatilishi (467-modda).

Shuni qayd etish kerakki, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 196-moddasida huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralari ko'rmaganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi [4].

O'zbekiston Respublikasida dastlabki tergovni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan organlarning faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik normalarini o'rganish quyidagilarni ko'rsatdi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunining 2-moddasida ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri "...huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat" [5] ekanligi huquqiy tartibga solingan.

Mazkur Qonunning 16-moddasida keltirilgan ichki ishlar organlarining majburiyatlari qatorida "...huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashi hamda ularni bartaraf etish choralari ko'rish" shartligi belgilangan.

Shuningdek, "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 2-moddasida prokuratura organlarining asosiy vazifalari qatorida to'g'ridan-to'g'ri "huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish" [6], 25-moddasida prokurorning vakolatlari qatorida "fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish va bartaraf etish", 42-moddasida "...prokuror fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlana-yotganligi xususida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradi hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi" deb tartibga solingan.

"Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 2-moddasiga ko'ra, Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalaridan biri "Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish" dan iborat. Shu bilan birga, mazkur Qonunning 24-moddasida Davlat xavfsizlik xizmatining majburiyatlari qatorida "huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga imkon yaratgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rish" belgilangan [7].

“O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida “huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish” [8] Milliy gvardiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, mazkur Qonunning 27-moddasida Milliy gvardiyaning majburiyatlari qatorida “huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishi, ularning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rish” belgilangan.

“Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasida bojxona organlarining vazifalari belgilangan bo‘lib, “bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo‘yish” [9] ushbu organlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilganlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tarkibiy bo‘linmalari hisoblangan surishtiruv va tergov organlari oldiga jinoyatlarning oldini olish vazifasi aniq qo‘yilganligini tasdiqlaydi. Ushbu majburiyat JPKning “Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari” belgilangan 2-moddasining ikkinchi qismida “Jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga yordam qilmog‘i lozim” deb aniq tartibga solingan. Bundan kelib chiqqan holda JPKning oltinchi bo‘limi “Jinoyatlarning oldini olish choralari” deb nomlangan va mazkur kodeksning 36-bobida aynan “Jinoyatlarning oldini olish choralari” tartibga solingan. Keltirilganlar jinoyatlarning oldini olish surishtiruv va tergov organlarining asosiy vazifalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni [10] huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni kompleks tartibga soluvchi asosiy qonun hisoblanadi. Qonunda umumiy qoidalar, huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari, asosiy prinsiplari, turlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va

unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar, ularning vakolatlari belgilab berilgan. Qonunning 3-moddasida “huquqbuzarlik”, “huquqbuzarliklar profilaktikasi” kabi bir qator asosiy tushunchalarga huquqiy ta‘rif berilgan bo‘lib, bu orqali mazkur tushunchalarga nisbatan ushbu sohadagi xilma-xil yondashuvlarga batamom chek qo‘ydi.

Mazkur Qonunning 4-moddasiga asosan, huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalaridan biri “huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish” hisoblanadi.

Shuningdek, qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi quyidagi davlat organlari va muassasalarining vakolatlari sifatida “huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish” belgilangan:

- 1) ichki ishlar organlari (10-modda);
- 2) prokuratura organlari (11-modda);
- 3) Davlat xavfsizlik xizmati organlari (12-modda);
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari (121-modda);
- 5) Milliy gvardiya organlari (122-modda);
- 6) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (123-modda);
- 7) adliya organlari (13-modda);
- 8) bojxona organlari (14-modda);
- 9) soliq organlari (15-modda);
- 10) mehnat organlari (16-modda);
- 11) ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalari (17-modda);
- 12) sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari (18-modda);
- 13) Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi organlari (19-modda);
- 14) Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari (191-modda).

Shuningdek, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrda qabul qilingan “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni [11] bilan tartibga solingan.

Mazkur Qonunda ham “voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish” aniq belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni terrorizmga qarshi kurashish, xususan uning profilaktikasi bo‘yicha faoliyatni tartibga soladi. Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha mas‘ul davlat organlari ushbu Qonun asosida fuqarolarning sog‘lig‘i, hayoti, mol-mulkini, ularning tinchligi va milliy totuv-ligini, davlatning suvereniteti hamda hududiy yaxlitligini terrorizm xavfidan himoya qiluvchi subyekt sifatida o‘z vakolatlari doirasida terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha tegishli vazifalarni amalga oshiradilar (8-modda). Xususan: terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yish hamda oqibatlarini minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradilar; alohida muhim, toifalangan va boshqa obyektlarning qo‘riq-lanishi va xavfsizligini ta‘minlaydilar; tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslar, guruhlar va tashkilotlar to‘g‘risida zarur axbo-rotlarni taqdim etadilar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar (5, 10, 15-moddalar) [12].

Shuni alohida qayd etish lozimki, tergov profilaktikasi doir normalar Davlat rahbarining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab berilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ–2898-son qarorining 1-ilovasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan bo‘lib, uning 2-bobi 6-bandi 2-xatboshisida Tergov departamentining asosiy vazifalaridan biri sifatida “jinoyatlarni tergov qilish amaliyotini kompleks va tizimli tahlil qilish, shu jumladan jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni aniqlash, shuningdek ularni bartaraf etish choralari ni ko‘rish” [13] nazarda tutilgan.

Tergov departamentiga ushbu vazifa doirasida quyidagi funksiyalarni amalga oshirish yuklatilgan:

– jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni aniqlash, umumlashtirish va tahlil qilish, shuningdek ularni bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

– huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha profilaktik tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni amalga oshirish.

Shuningdek, Nizomning 3-bobi 8-bandi 5-xatboshisida Tergov departamentiga “davlat organlari va boshqa tashkilotlariga, mansabdor shaxslarga kiritiladigan jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalarni tayyorlash” huquqi berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ–2833-son qarorida [14] huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek xo‘jalik boshqaruvi organlarining ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Ushbu sohada davlat idoralari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri “huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish choralari ni ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida oldini olish hamda ularga chek qo‘yish, shuningdek ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish” hisoblandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PF–10-son Farmoniga muvofiq, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilib, “... jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, uning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ma‘naviy-ma‘rifiy, huquqiy, tibbiy va tashkiliy omillarini kompleks ilmiy diagnoz asosida aniqlash; jamoatchilik o‘rtasida shov-shuvga sabab bo‘lgan jinoyatlarning omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ni ishlab chiqishda belgilangan tartibda mutaxassis sifatida surishtiruv va dastlabki tergov organlariga uslubiy ko‘maklashish” uning asosiy vazifasi etib belgilandi [15].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kriminologik faoliyatni ilmiy ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 24-iyuldagi 445-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti to'g'risidagi nizom, Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish metodikasi tasdiqlandi [16].

Shuningdek, ayrim turdagi jinoyatlar bo'yicha ish yurituvini amalga oshirishda jinoyatlarning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha

majburiyatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlarida [17] ham keltirilgan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, milliy qonunchiligimizda jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi vakolatli davlat organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida sodir etilgan jinoyatlarning sabab va omillarini aniqlash hamda bartaraf etish aniq belgilangan bo'lib, barcha zarur choralarni ko'rishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Rahmonqulov A.X. Dastlabki tergov: Darslik. – Toshkent, 2005. – B. 197-211.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/6445145>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // <https://lex.uz/docs/111460>.
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // <https://lex.uz/docs/97664>
5. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son qonuni // <http://lex.adm.uz/uz/docs/3027843>.
6. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-son qonuni // <http://lex.adm.uz/docs/106197>.
7. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-471-son qonuni // <http://lex.adm.uz/docs/3610935>.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'RQ-647-son qonuni // <http://lex.adm.uz/docs/5128310>.
9. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi 472-I-son qonuni // <http://lex.adm.uz/docs/67566>.
10. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son qonuni // <http://lex.adm.uz/docs/2387357>.
11. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-son qonuni // <http://lex.adm.uz/docs/1685726>.
12. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi 167-II-263-son qonuni // <http://lex.adm.uz/docs/29526>.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2898-son qarori // <http://lex.adm.uz/docs/3180665>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-son qarori // <http://lex.adm.uz/docs/3141186>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-son farmoni // <http://lex.adm.uz/docs/6755597>.
16. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyuldagi "Kriminologik faoliyatni ilmiy ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-son qarori // <https://lex.uz/docs/7034904>
17. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari // <https://old.sud.uz>.

